

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**YULDASHEV SHERALI NURALIYEVICH**

**BOLA SAVDOSI UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)**  
**Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation**

<b>Yuldashev Sherali Nuraliyevich</b> Bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish.....	3
<b>Юлдашев Шерали Нуралиевич</b> Совершенствование ответственности за торговлю детьми.....	23
<b>Yuldashev Sherali Nuraliyevich</b> Improvement accountability for child trafficking.....	43
<b>E’lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	47

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**YULDASHEV SHERALI NURALIYEVICH**

**BOLA SAVDOSI UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2022.3.PhD/Yu811 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida veb-sayti ([www.mgixu.uz](http://www.mgixu.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Rustambayev Mirzayusup Xakimovich</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Taxirov Farhod</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Toshpulatov Akrom Ikramovich</b> yuridik fanlar doktori
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy Kengashi</b> huzuridagi Sudyalar Oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil «2» 05 kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: +99871 230-32-71; faks: +99871 230-32-50, [info@mgixu.uz](mailto:info@mgixu.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3128 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: +99871 230-32-71; faks: +99871 230-32-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «18» 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil «18» 04 dagi 7 -raqamli reestr bayonnomasi)

  
**D.M. Mirazov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash raisi o'rinbosari, yuridik  
fanlar doktori, professor

  
**J.D. Armedov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

  
**Sh. X. Zulfiqarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash qoshimadagi ilmiy seminar  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda bola savdosi jabrlanuvchilari turli yo‘sindagi ekspluatatsiyalarga duchor bo‘lmoqdalar. Xususan xotin-qizlar majburiy turmush va jinsiy qullikka sotilayotgan bo‘lsa, o‘g‘il bolalar og‘ir mehnat sharoitlarida ishlashga majburlanadilar, urush o‘choqlariga yollaniladi yoki noqonuniy tibbiyotda tana a‘zolari donoriga aylanmoqdalar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022 yildagi hisobotiga ko‘ra, aniqlangan odam savdosi qurbonlarining salmog‘ida bolalar 28 foizni, xotin-qizlar 71 foizni tashkil etishi<sup>1</sup>, aniqlangan har uchta jabrlanuvchining bittasi bola ekanligi qayd etilgan<sup>2</sup>. Statistik raqamlar tahlili, bola savdosi va uni ekspluatatsiya qilishni jinoiy-huquqiy jihatdan cheklash hamda bu borada xalqaro huquqning umume’tirof etgan qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan bog‘liq masalalarni dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Jahonda kuzatilayotgan moliyaviy-iqtisodiy nomutanosibliklar, davlatlarning iqtisodiy holatidagi turfa xil ko‘rsatkichlar, ishsizlikning ortishi, kambag‘al ahvoldagi qatlamning ijtimoiy himoyalash masalalaridagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan choralar, noqonuniy migratsiya jarayonlari, transmilliy jinoiy tashkilotlarning faol harakatlari, urush o‘choqlarining mavjudligi, “ommaviy madaniyat” ta’siri, odamga qul kabi munosabatda bo‘lish, ularni ekspluatatsiya qilish, olish-sotish kabi odam savdosi jinoyati sirasiga kiruvchi bola savdosi va bolani ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq holatlarning turli ko‘rinishlari vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari xususan, odam savdosiga qarshi kurashish markazi (GRETA)<sup>3</sup>, Yevropa Kengashining odam savdosiga qarshi markazi va boshqalar tomonidan doimiy ravishda bola savdosini oldini olish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda<sup>4</sup>. Bunda insoniyat kelajagi xavfsizligini ta’minlash, bola savdosiga qarshi kurashish yuzasidan xalqaro hamda davlatlar miqyosidagi milliy huquqiy ta’sir tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk davridan boshlab, bola huquqlarni himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. So‘nggi yillarda davlatimizda olib borilayotgan islohotlar zaminida “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni ro‘yobga chiqarish maqsadida amaliy chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi<sup>5</sup> Farmoni 1-Ilovasi 14-maqsadida, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini

<sup>1</sup> Trafficking in Persons. <https://www.unodc.org/unodc/data-and-analysis/glotip.html>

<sup>2</sup> Explainer: Understanding Child Trafficking // United Nations Office on Drugs and Crime [https://www.unodc.org/unodc/frontpage/2024/July/explainer2\\_-understanding-child-trafficking.html](https://www.unodc.org/unodc/frontpage/2024/July/explainer2_-understanding-child-trafficking.html)

<sup>3</sup> Группа по борьбе с торговлей людьми ГРЕТА // <https://www.coe.int/ru/web/portal/-/anti-trafficking-group-greta-issues-2023-report>

<sup>4</sup> Council of Europe Convention on Action against Trafficking in Human Beings // <https://www.coe.int/en/web/anti-human-trafficking/anti-trafficking-convention>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish borasida, bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash vazifasini bajarish koʻzda tutilgan. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”<sup>1</sup> Farmonining 1-Ilovasi 24-maqсадida, “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish borasida, jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zoʻravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish” vazifasi belgilandi. Bola savdosidan jabrlanganlarning manfaatlarini himoya qilish, yetkazilgan moddiy va maʼnaviy zararni qoplash choralarni koʻrish, sodir etilgan jinoyatni fosh etilishida hamkorlik qilgan shaxslarni huquqiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirish, shuningdek, bola savdosi jinoyatining profilaktikasi, huquqni amaliyotda qoʻllash orqali yuzaga kelgan muammolarning ilmiy jihatdan yechimini topish, bugungi kun amaliyotining muhim masalalaridan hisoblanadi. Amaldagi jinoyat qonunchiligimizda bola savdosi yoki bolani ekspluatatsiya qilishning oldini olish mexanizmi aniq koʻrsatilmaganligi, jinoyat qonunchiligini va uni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti maʼlum darajada, Oʻzbekiston Respublikasining 1994 yil 22-sentabrda 2014-XII-sonli Qarori bilan qabul qilingan Jinoyat kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining 2008 yil 7-yanvardagi OʻRQ-139-sonli “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”, 2010 yil 29-sentabrdagi OʻRQ-263-sonli “Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi toʻgʻrisida” va 2020 yil 17-avgustdagi OʻRQ-633-sonli “Odam kurashish savdosiga qarshi toʻgʻrisida”gi Qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18-apreldagi PQ-2898-sonli “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2018 yil 14-maydagi PQ-3723-sonli “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” va 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-sonli “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarorlari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2023 yil 1-iyundagi PF-82-sonli “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida” va 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi “Oʻzbekiston — 2030” Strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bola savdosiga qarshi kurashning ayrim jihatlarini mamlakatimiz olimlaridan – Y.A. Abdulhaqov, Q.R. Abdurasulova, Sh. Berdiyev, I.Yu. Fazilov, Sh.H. Hamrayeva, M.X. Jiyanov, S.S. Niyozova, J.A. Ne‘matov, Yu.S. Pulatov, N.B. Qurbonov, M.X. Rustambayev, M.A. Rajabova, F. Taxirov, M.B. Usmonov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan. E.X. Xolova “Ayollar va bolalarni yollashga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy jihatlarini” o‘rganagan.

MDH davlatlari olimlari orasida bola savdosiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari V.B. Borovikova, B.I. Bentovina, M.V. Vladimirskiy-Budanova, Yu.V. Voroshilin, B.V. Voljenkina, L.D. Gauxman, P.A. Gratsianova, I.V. Godunova, O.A. Gonchorenko, V.V. Yesipova, L.Yu. Yegorova, V.A. Ivashenko, N.G. Kulakova, N.I. Korjanskiy, G.A. Kriger, V.V. Luneeva, A.I. Milevskiy, X.A. Neklyudova, Y.Y. Pudovochkina, A.A. Stanskoy, N.D. Sergeevskiy, V. Tkachenko, N.S. Taganseva va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda bola savdosiga oid ilmiy izlanishlarni, Stephanie L. Mace, Lucrecia Colombo, Nadia Hossain, Amin Md. Ruhul, Sheikh Md. Rashidul Islam, Jordan Greenbaum, Gazi Rukhsana, Nansi Yosepin Simbolon, Madyasa Ablisar, Turner Alexandra, Lucy Belcher, Iryna Pona, Nur al Sharif kabi olimlar tomonidan olib borilgan<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqotlarida bola savdosining yangi ko‘rinishlar uchun javobgarlik belgilash, javobgarlikni differentsiatsiya qilish va jazoni individuallashtirish imkonini kengaytirish, jabrlangan o‘jiz ahvoldagi shaxslar, homilador ayollar va bolalarning manfaatlarini jinoyat-huquqiy vositalar orqali muhofaza qilishni kuchaytirish, jinoyatni fosh etishda faol hamkorlik qilgan shaxslarning jazosini yengillashtirish, bolalarga nisbatan turli ekspluatatsiyani amalga oshirish, majburlash ostida g‘ayriqonuniy faoliyatda ishtirok etgan jabrlanganlarni jazodan ozod qilish xususiyatlari ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etilmagan. Xalqaro huquq normalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, bola savdosiga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik muammolari yuzasidan chuqur va mustaqil kompleks tavsifga ega tadqiqot o‘tkazilmagan, alohida monografik tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari kompleks dasturiga muvofiq “Bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>1</sup> Bu va boshqa mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

bola savdosi tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

bola savdosi uchun javobgarlikning retrospektiv tahlil etish;

bola savdosi uchun javobgarlikni belgilash bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil etish;

bola savdosining jinoiy- huquqiy tavsifi (obyekti, obyektiv tomoni, subyektivi, subyektiv tomoni) ga oid muammolarni tadqiq etish;

bola savdosi bilan bog‘liq jinoyat subyektining xususiyatlari tahlili va tasnifini ochib berish;

bola savdosi jinoyatining sodir etilishiga tahdidlarni o‘rganish orqali mavjud qonunchilikka taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

bola savdosi uchun javobgarlik masalasida normativ-huquqiy hujjatlarning mukammalligi masalasini tahlil qilish;

bola savdosi uchun jinoiy-huquqiy choralarni takomillashtirish yuzasidan bola savdosini kvalifikatsiya qilish, o‘xshash jinoyatlardan farqlash, qonun normalarini xalqaro huquqiy hujjatlar talablariga yanada muvofiqlashtirish borasidagi masalalarni tadqiq etish hamda ularni bartaraf etishga imkon beradigan taklif va xulosalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bola savdosi uchun javobgarlik bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** bola savdosiga oid jinoyat qonunchilik normalari, bola savdosining umumiy tavsifi, tushunchalari, ilmiy-nazariy qarashlar, bola savdosi uchun javobgarlik takomillashtirish bilan bog‘liq jinoyat-huquqiy, kriminologik muammolar, xalqaro shartnoma va kelishuvlar, ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda bilishning ilmiy usullaridan – mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so‘rovlari, statistik ma’lumotlar tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyati tahlili, surishtiruv-tergov amaliyoti hamda jinoyat ishlarini o‘rganish va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

muqaddam, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan har qanday jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarni jazo chorasidan, sudlanganlik holatidan qat’iy nazar bolaning erkinligi va shaxsiy daxlsizligini ta’minlash, bolaga nisbatan jinsiy yoki jismoniy tajovuzlarni oldini olish maqsadida bolalar bilan bevosita ishlashni nazarda tutuvchi faoliyat turlari bilan shug‘ullanishini taqiqlash lozimligi asoslantirilgan;

bola savdosi va uni ekspluatatsiya qilinishini oldini olishning chorasi sifatida zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarga himoya orderi berish tartibini yo‘lga qo‘yish va order berish orqali bolani huquqiy himoyalash zaruriyati asoslantirilgan;

bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish jinoyati aniqlangan paytdan boshlab, o‘ttiz sutka ichida, qarovsiz qoldirilgan bolaning O‘zbekiston hududiga qaytarilishi ushbu jinoyat uchun belgilangan javobgarlikdan ozod qilishning asosi bo‘lishi xususida jinoyat-huquqiy normaning belgilanishi bolalarning odam savdosi

jinoyati qurboniga aylanib qolish holatlarini kamaytirishning eng samarali usuli ekanligi asoslantirilgan;

xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalari asosida bolani zo'rvonlikdan himoya qilish va bolalar savdosini xorijiy davlat hududida cheklash zarurati sababli bolalarni xorijiy davlatlarda ota, ona yoki ularning o'rnini bosuvchi yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan nazoratsiz qoldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash zaruriyati asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish va bolani ekspluatatsiya qilinishini oldini olish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

bola savdosi bilan bog'liq holatlarni oldini olish choralari kuchaytirish maqsadida, bolaning hayotiga, sog'lig'iga qarshi jinoyatlar haqida xabar kelib tushganda, ish natijasidan qat'i nazar bu haqda Bolalar ombudsmanini xabardor qilish zaruriyati asoslantirilgan;

O'zbekiston hududida bola savdosi bilan bog'liq holatlarning shakllanishi va rivojlanish davri retrospektiv tahlil qilingan va oltita bosqichga ajratilgan;

bola savdosi bilan bog'liq jinoyatlar tahlil qilinib, jinoyat subyekting tavsifi shakllantirilgan;

amaliyotda turlicha talqin etilayotgan va huquqiy atamalarda mavjud emasligi bois, insonning urug'lanish jarayonidan toki tug'ilish paytigacha bo'lgan davrni aks ettiruvchi "homila" tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan;

bola tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan atamalarni bir xilda ifodalash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, shuningdek bola savdosi tushunchasi ifodalangan 2020-yil 17-avgustdagi "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi tayyorlangan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish yo'nalishida olib boriladigan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori loyihasi ishlab chiqilgan;

bola savdosi uchun javobgarlik belgilashga qaratilgan takliflar, davlatning demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategiyasiga uyg'un holda ishlab chiqilgan bo'lib, bola savdosiga qarshi kurash sohasidagi amaldagi qonunchilikni modernizatsiya qilishga, milliy xavfsizlikka nisbatan yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar va xavf-xatarlarning oldini olishga xizmat qilishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyotiga asoslangan. Tadqiqot doirasida muallif tomonidan, sotsiologik tadqiqotlar, anketa

so‘rovi (114 nafar sud-tergov amaliyoti xodimlari ishtirokida) o‘tkazilgan, statistik ma‘lumotlar va 100 dan ortiq jinoyat ishlari va sud hukmlarining tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan bo‘lib xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan hamda olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, unda bildirilgan takliflar va tavsiyalardan tegishli qonun normalarini sharhlashda, jinoyat huquqi, kriminologiya fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, milliy qonun hujjatlarini va ularni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, sohaga oid nazariy (doktrinal) bilimlarni boyitish va yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, sud-tergov amaliyotida bola savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarni ko‘rib chiqishda, bola savdosi uchun javobgarlik belgilovchi normalarning to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanilishda, shuningdek ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish subyektlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun ijodkorligida, Jinoyat kodeksini tegishli normalarini sharhlashda, «Jinoyat huquqi», «Kriminologiya», «Huquqbuzarliklar profilaktikasi» va «Tezkor-qidiruv huquqi» kabi o‘quv fanlaridan mashg‘ulotlar o‘tkazishda qo‘llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

muqaddam o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan har qanday jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarni jazo chorasidan, sudlanganlik holatidan qat‘iy nazar bolalar bilan bevosita ishlashni nazarda tutuvchi faoliyat turlari bilan shug‘ullanishini taqiqlash lozimligi to‘g‘risidagi taklifidan 2023-yil 11-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son Qonunning 7-moddasi 2-bandi 1-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) o‘rinbosarining 2024-yil 18-martdagi № 02-07/148-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifni qabul qilinishi bola savdosini oldini olish va ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish choralarini takomillashtirishga huquqiy jihatdan xizmat qiladi;

bola savdosi va uni ekspluatatsiya qilinishini oldini olishning chorasi sifatida zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarga himoya orderi berish va bolani huquqiy himoyalash mexanizmini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi takliflardan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonun loyihasi”ni ishlab chiqishda inobatga olingan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 22-fevraldagi № 01/q-08-28-sonli ma‘lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi bolani ekspluatatsiya qilish, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish, bolaning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf soluvchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan va chet davlat hududida qarovsiz qoldirilgan va bola savdosi qurboni bo‘lishi mumkin bo‘lgan bolani sud tomonidan belgilangan muddatda O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytarilishini ta’minlamalik uchun jinoiy javobgarlik belgilash borasidagi takliflardan, 2023-yil 15-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-823-sonli Qonunning 1-moddasini shakllantirishda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 22-fevraldagi № 01/q-08-28-sonli ma’lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi bola savdosini oldini olishga va nazoratsiz bolani chet elda shunday turdagi jinoyatlar qurboniga aylanishini oldini olishga xizmat qiladi;

bolalarni xorijiy davlatlarda nazoratsiz qoldirganlik uchun jinoiy-huquqiy jihatdan cheklash (kriminalizatsiya) lozimligi borasidagi takliflardan, 2023-yil 15-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-823-sonli Qonunning 1-moddasini shakllantirishda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 22-fevraldagi № 01/q-08-28-sonli ma’lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi bolani ota, ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxs yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirishini va o‘z o‘rnida bola savdosi hamda uni ekspluatatsiya qilinishini oldini olish uchun xizmat qiladi;

bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga yoki jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar haqida xabar kelib tushganda, ish natijasidan qat’iy nazar bu haqda Bolalar ombudsmanini xabardor qilish haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi 917-son Qonunining 36-moddasi 1-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2024-yil 15-martdagi № 20 sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi bolani har qanday ekspluatatsiya qilish va bola savdosi bilan bog‘liq xabarlar asosida mavjud holatni nazorat qilish hamda qonuniylikni ta’minlanishiga huquqiy jihatdan xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishining natijalari 13 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (shundan 5 ta respublika va 1 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, 8 paragrafni qamrab olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki muassasasining ilmiy-tadqiqot muassasasining ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bola savdosi uchun jinoiy javobgarlikning nazariy-huquqiy tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida mavzuga oid tushunchalar, ularning nazariy tavsifi va tavsiyalar, bola savdosidan jabrlanish ehtimolidagi ayol, homila va bolaning huquqiy himoyasi bo'yicha tahlillar, takliflar, jismoniy shaxslar tomonidan sodir etiladigan qonunbuzarliklar uchun jazoning muqarrarligini ta'minlash borasida belgilanadigan choralar, bola savdosi uchun javobgarlikning retrospektiv tahlili, bola savdosi uchun javobgarlikni belgilash bo'yicha xorijiy tajribalar o'rganilgan va tahlillar asosida tavsiya, takliflar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning *birinchi paragrafida*, bola savdosi tushunchasi, uning ijtimoiy xavfliligi, milliy xavfsizlikka raxna solishi, umuminsoniy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarni izdan chiqarishi, bunday qilmishni sodir etilishi natijasida bolaning “narsa”, “tovar”ga aylanishi mumkinligi tadqiq etilgan. Bola savdosi o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib alohida va samarali tizimini yaratish zaruriyati o'rganilgan.

Bola huquqlarini ta'minlash, uni turli tazyiq va zo'rvonliklardan, huquqbuzarliklardan himoya qilish borasida xalqaro, maqbul va umumma'qullangan andoza hamda qoidalarni tatbiq etish, shakllantirish maqsadida deklaratsiya, rezolyutsiya, konvensiyalar qoidalariga rioya etish, bola huquqlari himoyasi bo'yicha maxsus nazorat organi faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda xalqaro hamkorlik doirasida ifodalanadi. Bola savdosi ularni sotish va ekspluatatsiya qilish jarayonida bir qator xavf-xatarlarga duchor bo'lishlaridan tashqari, xalqaro qonun hujjatlarida e'tirof etilgan boshqa ko'plab huquqlarining buzilishi bilan ham bog'liqdir.

Inson hayotining boshlanishini aniqlash homilaning huquqiy maqomi muammosi bilan bog'liqdir. Milliy va xalqaro huquqning muhim masalalaridan biri homilaning huquqiy tushunchasidir. Milliy qonunchiligimizda, homila yoki homilador ayolga nisbatan huquqbuzarlik sodir etilganda yoki homilador ayol tomonidan jinoyat sodir etilganda uning huquqiy holati yuzasidan normalar kiritilgan bo'lsa-da, homila tushunchasining huquqiy atamasi mavjud emas. Tadqiqot davomida homila tushunchasining huquqiy atamasiga mualliflik ta'rifi va qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

Dissertant tadqiqot davomida, bolani tashlandiq joylarda qoldirib ketishni oldini olish, uning hayotini saqlab qolish maqsadida, bolani qoldirib ketish uchun mo'ljallangan, maxsus jihozlangan va himoyalangan qutilar (Umid beshigi - Beby

boks) ni tibbiyot maskanlari yoki Ijtimoiy himoya agentligi hududiy bo‘limlari, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga yaqin joylarda o‘rnatish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish yuzasidan izlanishlar olib borgan hamda tegishli takliflar bergan.

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafida*, bola savdosi uchun javobgarlikning retrospektiv tahlili tadqiq qilingan. O‘zbekiston hududida odam savdosi uchun javobgarlik belgilangan normalarning shakllanish va rivojlanish tarixi, shuningdek, yangi O‘zbekistondagi islohotlar natijasida erishilayotgan yutuqlar tahlil qilingan.

Bola savdosini oldini oluvchi huquqiy hujjatlar, albatta odam savdosi jinoyatini oldini olishga qaratilgan normalar bilan chambarchas bog‘liq. Odam savdosiga qarshi ilk qadamlar, jinsiy ekspluatatsiya maqsadida ayollar savdosiga qarshi kurash bo‘yicha 1899-yil 14-aprelda Londonda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada, ishtirokchi davlatlarda ushbu yo‘nalishdagi huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan tegishli idoralar tashkil etish hamda hamkorlikda harakatlanish uchun davlatlararo kelishuv bitimlar tuzish bo‘yicha murojaatnoma qabul qilindi.

BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishi bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yangi davrni ochib berdi hamda huquqiy jihatdan qat’iy mustahkamladi. Shaxsning yashash huquqi, erkinligi, daxlsizligi, hech bir inson qullik holatida yoki o‘z erkiga zid holda saqlanmasligi, odam savdosi va uning turli ko‘rinishlari, jumladan qullik va qul savdosiga yo‘l qo‘yilmasligi xalqaro darajada taqiqlandi. Ushbu deklaratsiya va 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro Pakt qoidalari bolalarning alohida himoyaga muhtojligini tan oldi.

Ushbu bobning *uchinchi paragrafida*, bola savdosi qurbonlari to‘g‘risida turli xalqaro tashkilotlar tomonidan rasmiy e‘lon qilingan statistik ma‘lumotlar tahlil qilingan. Bola savdosiga qarshi kurashishda bola huquq va erkinliklarini himoya qilish yuzasidan qabul qilingan xalqaro hujjatlar ahamiyati o‘rganilgan. Bola savdosi va ekspluatatsiyasi uchun javobgarlikni belgilash bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasidagi ilg‘or amaliyotni mamlakatimiz qonunchiligiga tatbiq etish, bola savdosini oldini olish borasida javobgarlikni belgilovchi alohida normani jinoyat qonunchiligimizda kiritish taklif etilgan.

Bola savdosi transchegaraviy, global muammo hisoblanib, unga qarshi kurashishda milliy qonunchilik doirasida samarali natijaga erishib bo‘lmaydi. Milliy miqyosda amalga oshirilgan faol choralar ushbu turdagi jinoyatning boshqa hududlar orqali boshqarilishning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun xalqaro ko‘p tomonlama va ikki tomonlama yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik muhim chora bo‘lib, bola savdosi jarayoniga keskin zarba beradi. Xalqaro tashkilotlar doirasida mustahkam aloqalar o‘rnatish, o‘zaro qarshi kurash kuchlarni birlashtirish zamon talabi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga bola savdosi to‘g‘risidagi mazmun mohiyatni aniq ifodalash maqsadida, ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda aybdorning qilmishini to‘liq qamrab oluvchi normani Jinoyat kodeksida bola savdosi uchun javobgarlikni belgilovchi alohida modda kiritish taklif qilingan.

Ishning ikkinchi bobi “**Bola savdosining jinoiy-huquqiy tavsifi, jinoyat subyekti va jinoyat sodir etilishiga tahdidlar**” deb nomlangan bo‘lib, unda

tadqiqotchi bola savdosining jinoiy-huquqiy tavsifini, jinoyat subyekti hamda bola savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashda, ushbu turdagi jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi tahdidlarni tahlil qilish orqali tegishli normativ huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zaruriyati tadqiq qilingan.

Ushbu bobning *birinchi paragrafida*, xalqaro huquqda va milliy qonunchiligimiz normalarida insonning tabiiy huquqlari, uning o‘zigagina tegishli bo‘lib, boshqalar ushbu huquqdan bevosita yoki bilvosita foydalanishlari mumkin emasligi hamda eng Oliy qadriyat ekanligi mustahkamlanganligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi, mavjud jinoyat qonunchiligiga asoslanib, qilmishni jinoyat deb topish uchun obyektiv va subyektiv belgilar jinoyat tarkibini tashkil etishi kerakligiga to‘xtaladi. Ushbu belgilarni har birini alohida tasniflaydi.

Muallif, bola savdosini amalga oshirgan yuridik shaxsni ham bola savdosi bilan bog‘liq jinoyatning subyekti sifatida javobgarlikka tortish zaruriyati mavjudligini (amaldagi jinoyat qonunchiligida javobgarlik mavjud emas), ushbu yo‘nalishda nazariy tavsiyalar bergan olimlar fikriga tayanib, qarshi fikr bergan tadqiqotchilar bilan ilmiy mushohadalar asosida, shuningdek xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda o‘z fikrini bildirib, sodir etgan qilmishi uchun yuridik shaxsni javobgarlikka tortish masalasini tavsiya sifatida kiritadi.

Dissertant, majburiy surrogat onalik – ayolni sun’iy urug‘lantirish yoki tabiiy (jinsiy aloqa yo‘li bilan) homilador bo‘lishiga, tug‘ishiga majburlash, go‘dakni yoki boshqalarning bolalarni ko‘krak suti bilan boqishga majbur qilishdir – degan ta’rifni qabul qilish hamda majburiy surrogat onalikni oldini oluvchi normani jinoyat qonunchiligiga kiritish orqali sodir etilayotgan yoki kelgusida sodir etilishi mumkin bo‘lgan bir qancha ijtimoiy xavfli qilmishni oldi olinishi mumkin deb hisoblaydi.

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafida*, dissertant jinoyatchi shaxsi – uning boshqa odamlar bilan turli xil o‘zaro munosabatlari jarayonida shakllangan va o‘z navbatida uni faoliyat, bilish va muloqot subyektiga aylantiradigan ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlarining yig‘indisi ekanligini ta’kidlab, uning o‘z nafsini jilovlab bilishi, aqliy salohiyati, axloqiy darajasi va intilishlarini inobatga olish kerakligini uqtiradi.

Jinoiy xulq-atvor shaxsni o‘rab turgan ijtimoiy borliq, muhit bilan bog‘liqdir. Jinoyatchi shaxsning xulq-atvor xususiyatlari, muayyan mayllari, uning intilishlari, dunyoqarashi, temperamenti, harakatlanish motivlari va maqsadlarida aks etadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilgan shaxsning jinoiy harakati ushbu shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlar zahirida sodir etiladi.

Tadqiqot davomida, xorijlik olimlar D. Abraxemsen, F. Gibbons, Ch. Lombrozo, V.Yu. Kachalov Dj. Shafer hamda milliy huquqshunoslardan Q.R. Abdurasulova, R.X. Dushanov, S.S. Niyozova, M.X. Rustambayev, I.Yu. Fazilov, Sh.X. Hamrayevalarning nazariy qarashlarida bayon etilgan turli yondashuvlarni tahlil qilgan dissertant, jinoyat sodir etgan shaxsga xos bo‘lgan portretini yoritib beradi. Bu esa, jinoyatchi shaxs to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish bilan birga insoniy tamoyillarga zid bo‘lgan va turli sharoitlarga moslashib borayotgan ushbu turdagi huquqbuzarlikni jilovlash imkoniyatini oshiradi.

Ushbu bobning *uchinchi paragrafida*, bola savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashda, ushbu turdagi jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi tahdidlarni tahlil

qilish orqali tegishli normativ huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur degan xulosaga kelgan. Bola savdosini sodir etilishiga sabab bo'ladigan holatlarni tahlil qilishda, global, mintaqaviy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni, shuningdek, mahalliy sharoitlar inobatga olinib o'rganilgan. Kriminogen vaziyatni tahlil qilish, bola savdosi bilan bog'liq holatlar sonining o'sishiga ta'sir qiluvchi psixologik, iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy tashkiliy, huquqiy, ahloqiy-madaniy omillarni o'rganish, tadqiqot davomida dissertant qarashlarida ifodalangan.

Dissertantning ta'kidlashicha, bolalar savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o'z faoliyatlari davomida aholi o'rtasida muntazam tushuntirish ishlarini olib borishlari, fuqarolarning jinoyat qurbonlariga aylanishining oldini olish choralari ko'rishlari, bolalar savdosining oldini olish va tugatish uchun mas'ul bo'lgan muassasalar, tashkilotlar va idoralar faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishlari kerak.

Bola savdosini oldini olish, oqibatlarini minimallashtirish va bartaraf etish borasida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi, Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, Yoshlar ishlar agentligi va uning hududiy bo'limlari, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda FHDYo (fuqarolik holatini dalolatnomada qayd etish), notarial idoralari tomonidan olib borilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan va ushbu tavsiyalarni tegishli normativ hujjatlarda aks ettirish muhimligini ta'kidlaydi.

Dissertant ommaviy axborot vositalari hamda internet ijtimoiy tarmoqlarida, ushbu turdagi jinoyatlarga jamoatchilik e'tiborni qaratish, jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirishda targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish orqali huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish mumkinligini bildirgan.

Tadqiqot ishining **"Bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish yo'nalishlari"**-deb nomlangan uchinchi bobida bola savdosi bilan bog'liq jinoyat tahlil qilingan hamda bola savdosi uchun jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Ushbu bobning *birinchi paragrafida*, dissertant tomonidan bola savdosi bilan bog'liq jinoyat uchun javobgarlikni takomillashtirish yuzasidan mavjud normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilgan. Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi (2020) hamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014) Qonunlaridagi nomutanosibliklarni muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar bergan hamda tegishli qonun loyihasi ishlab chiqqan.

Dissertant, bola tushunchasini xalqaro huquqiy hujjatlarda berilgan ta'rifga moslashtirish maqsadga muvofiqligini, insonni urug'lanish jarayonidan toki o'rta yoshdagi shaxs darajasiga yetgunigacha bo'lgan davrini tartibli aks ettiruvchi va bugungi kunda turlicha talqin etilayotgan tushunchalarni bir xilda qabul qilib, lug'at,

soʻzlashuv va huquqiy hujjatlarda qoʻllanilishi turli talqinlarda ifodalanmaslik maqsadida bola tushunchasini ifodalanishini boʻyicha tavsiya bergan.

Muallif, mamlakatimizda odam savdosi jinoyatiga qarshi kurashish borasida bir qator chora-tadbirlar tizimi belgilanib, keng qamrovli islohotlar olib borilishga qaramasdan, bola huquqlarini himoya qilish borasida tegishli huquqiy hujjatlar amaliyotga taqdim etilgan boʻlsa-da, bola savdosini oldini olish borasida amalga oshirilayotgan tadbir choralari, ushbu toifadagi jinoyatlarni oldini olish, uni bartaraf etishda yetarli boʻlmayapti, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi, tashkiliy-huquqiy yoʻnalishda, bola savdosi va bolani ekspluatatsiya qilishni oldini olishda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan takliflar kiritgan.

Bundan tashqari, bola savdosi va ekspluatatsiyasini bartaraf etish borasida bir qator qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish yuzasidan mualliflik takliflari ilgari surilgan.

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafida*, bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish borasida bola savdosi yoki bolani ekspluatatsiyasi uchun javobgarlik belgilash zaruriyati yuzasidan toʻxtalib, tadqiqot olib borgan olimlarning qarashlari va bu borada ilgʻor tajribaga ega davlatlarning jinoyat qonunchiligi hamda ushbu turdagi jinoyatlar statistikasi tahlil qilingan va oʻrganilgan.

Bolani sotib olish – sotish yoki unga nisbatan boshqa noqonuniy bitimlar tuzish bolaning kelgusi hayotini, uning huquq va erkinliklarini katta xavf ostiga qoʻyadi. Shuni unutmaslik kerakki, bola savdosi bilan shugʻullanuvchi shaxslar oʻz jinoiy xatti-harakatlarini amalga oshirish, qilmishini yashirish maqsadida, jinoyat sodir etishning turli yangidan yangi usullarni oʻylab topadi. Bolani olish-sotish yoʻllarni takomillashtirib boradilar.

Dissertant tadqiqot davomida oʻrganilgan xorijiy tajriba va milliy amaliyot tahlili asosida bolaga nisbatan amalga oshiriladigan qonunga xilof bitimlarni tasniflagan. Odam savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish masalasida tadqiqot olib borgan olimlar, jumladan N.B. Qurbonov, S.S. Niyozova, M.X. Rustambayev, I.Yu. Fazilov, Sh.H. Hamrayevalarning ilmiy-nazariy qarashlari hamda bir qator xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga, Bola savdosi va bola ekspluatatsiyasini oldini olish boʻyicha tegishli norma kiritishni taklif qilgan.

Muallif jinoyat sodir etgan yoki unga tayyorgarlik koʻrayotgan shaxs, ushbu turdagi jinoyatga tayyorgarlik koʻrayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida oʻz ixtiyori bilan ogʻzaki, yozma yoki biron-bir texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda tegishli organlarga maʼlumot bergan boʻlsa hamda uning qilmishida boshqa jinoyat alomatlari yoʻq boʻlgan holatlarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi kerakligi yuzasidan taklif bergan.

Tadqiqotchi tomonidan, bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish, bolaga nisbatan sodir etilishi mumkin boʻlgan huquqbuzarliklarni oldini olish va preventiv profilaktika choralari koʻrish taʼsirini oʻzida mujassam etgan holda jamiyatda huquq-tartibot va xavfsizlikni taʼminlashdagi zamonaviy muammolarga yechim sifatida Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 135<sup>1</sup> – (Bola savdosi yoki bolani ekspluatatsiya qilish) moddani kiritishni taklif qilgan.

Tadqiqotchi, bolani qasddan xavf ostida yoki chet davlat hududida nazoratsiz qoldirgan shaxslarga nisbatan javobgarlik belgilash orqali bolaning hayoti saqlab qolinishi, uning huquqlari himoya qilinishi, bola savdosi qurboni bo‘lib qolishda oldi olinadi degan fikrda qolib, O‘zbekiston Respublikasi JKning 122<sup>1</sup>-moddasiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishni taklif qilgan.

Bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-sonli “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishining har bir bobi bo‘yicha muallif tomonidan alohida-alohida xulosalar berilgan bo‘lib, ularda bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirishga doir ilmiy-nazariy takliflar, milliy qonun hujjatlari va sud-tergov amaliyotini mukamallashtirishga oid tavsiyalar keltirilgan.

## XULOSA

